

XII. DEMOGRAFIYA

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning 1- oktabr holatiga viloyatda doimiy aholi soni 4 094,6 ming kishini tashkil qildi va yil boshiga nisbatan 63,3 ming kishiga yoki 1,6 foizga ko'paydi.

Doimiy aholi soni, ming kishi

(2022- yil 1- oktabr holatiga)

	Jami aholi soni	shu jumladan:		jami aholi sonidan:	
		erkaklar	ayollar	shahar aholisi	qishloq aholisi
Viloyat bo'yicha	4 094,6	2 061,0	2 033,6	1 506,2	2 588,4
Samarqand sh.	570,4	276,4	294,0	570,4	x
Kattaqo'rg'on sh.	93,2	46,6	46,6	93,2	x
<i>tumanlar:</i>					
Oqdaryo	168,0	84,9	83,1	64,9	103,1
Bulung'ur	196,3	100,1	96,2	43,7	152,6
Jomboy	183,6	92,6	91,0	40,5	143,1
Ishtixon	268,5	135,1	133,4	72,5	196,0
Kattaqo'rg'on	286,3	145,3	141,0	54,2	232,1
Qo'shrabot	138,4	70,7	67,7	12,9	125,5
Narpay	222,3	113,0	109,3	65,8	156,5
Payariq	265,2	137,4	127,8	75,2	190,0
Pastdarg'om	372,9	187,4	185,5	96,1	276,8
Paxtachi	149,4	74,4	75,0	28,9	120,5
Samarqand	265,7	134,3	131,4	16,5	249,2
Nurobod	158,4	79,8	78,6	17,9	140,5
Urgut	541,7	274,9	266,8	227,2	314,5
Toyloq	214,3	108,1	106,2	26,3	188,0

Aholining tabiiy harakati


(yanvar-sentabr oylarida)

	kishi			har ming aholiga, nisbatan	
	2021- y.	2022- y. ¹⁾	o'lish, kamayish	2021- y.	2022- y. ¹⁾
Tug'ilganlar	81 934	81 882	-52	27,5	26,9
O'lim	14 446	14 498	52	4,9	4,8
Nikohlar	24 319	22 329	-1 990	8,2	7,3
Ajralishlar	3 032	3 799	767	1,0	1,3

Tug'ilish. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 81 882 ta bola tug'ilgan va 2021- yilning shu davriga (81 934 ta bola tug'ilgan) nisbatan -52 taga kamaydi, tug'ilish koeffitsienti esa 26,9 promilleni tashkil qildi (2021- yil yanvar-sentabrda 27,5 promille).

Tug'ilish koeffitsientining sezilarli darajada o'sishi Payariq (31,3 dan 31,6 promillega), Kattaqo'rg'on shahri (22,5 dan 28,7 promillega), Samarqand shahri (19,7 dan 26,9 promillega), Bulung'ur (27,5 dan 28,7 promillega) shahar va tumanlarida kuzatildi.


Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti



Vafot etish darajasi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida vafot etganlar soni 14 498 kishini tashkil qildi va 2021- yilning shu davriga (14 446 kishi) nisbatan 52 taga ko'paydi. O'lim koeffitsienti esa 4,8 promilleni tashkil qildi (2021- yilning shu davrida 4,9 promille).

Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsienti

(2022- yil yanvar-sentabr)




Vafot etganlar sonining ko'payishi Qo'shrabot (5,0 dan 6,6 promillega), Urgut (3,9 dan 5,0 promillega), Pastdarg'om (4,2 dan 4,8 promillega) va Ishtixon (4,2 dan 4,5 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ro'yxatga olingan jami vafot etganlar 56,4 foizi - qon aylanish tizimi kasalliklari, 6,8 foizi - o'sma kasalliklari, 5,5 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlar, 4,6 foizi - ovqat hazm qilish organlari kasalliklari, 9,4 foizi - nafas olish organlari kasalliklari, 1,1 foizi - infeksiya kasalliklari va qolgan 16,2 foizi esa boshqa kasalliklar bilan kasallanganligi sababli vafot etgan.

Vafot etganlar umumiy sonining tarkibiy tuzilishi, % da

(2022- yil yanvar-sentabr)




Nikoh. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 22 329 ta nikoh qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,3 promilleni (2021- yilning shu davrida 8,2 promille) tashkil etdi.

Nikoh tuzish koeffitsientining sezilarli darajada ko'payishi shahar va tumanlarda kuzatilmadi.


Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti

(2022- yil yanvar-sentabr)




Nikohdan ajralishlar. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlarida 3 799 ta nikohdan ajralganligi qayd etilgan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,3 promilleni tashkil etdi.

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(2022- yil yanvar-sentabr)



Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 7 053 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 11 143 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus -4 090 kishi (2021- yilning shu davrida minus -6 389 kishi)ga teng bo'ldi.



Aholining migratsiya ko'rsatkichlari, kishi

(yanvar-sentabr oylarida)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya sal'dosi	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Viloyat bo'yicha	7 697	7 053	14 086	11 143	-6 389	-4 090
Samarqand sh.	4 190	2 994	2 152	1 827	2 038	1 167
Kattaqo'rg'on sh.	440	289	605	638	-165	-349
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	160	365	595	385	-435	-20
Bulung'ur	309	254	873	643	-564	-389
Jomboy	299	251	417	337	-118	-86
Ishtixon	420	290	1 070	781	-650	-491
Kattaqo'rg'on	337	450	1 065	780	-728	-330
Qo'shrabot	168	244	991	653	-823	-409
Payariq	156	270	1 245	878	-1 089	-608
Pastdarg'om	149	458	823	655	-674	-197
Paxtachi	10	17	948	883	-938	-866
Samarqand	394	560	723	581	-329	-21
Narpay	169	182	672	551	-503	-369
Nurobod	192	117	490	444	-298	-327
Toyloq	283	266	300	237	-17	29
Urgut	21	46	1 117	860	-1 096	-814